

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSULLIK HUQUQI RIVOJINING ISTIQBOLLARI

Ne'matova Muborak Odiljonovna

Hozirgi rivojlanib borayotgan jamiyatda huquqiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, konsullik masalalarining ko'lami borgan sari kengayib bormoqda. Bu konsullarning davlat organlari bilan konsullik-huquqiy masalalar bo'yicha muzokaralar olib borishi, diplomatik yozishmalar olib borishi, sud va ma'muriy organlar majlislarida ishtirok etishi kabilar bilan bog'liq. 1990-yillarning oxiridan boshlab konsullik yuridik xizmatlariga ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Konsullik xizmati diplomatik xizmat doirasidagi konsullik faoliyati bo'lib, o'z mamlakati fuqarolari bilan aloqa o'rnatuvchi yuridik xizmatdir. Davlat o'z fuqarolariga o'z hududida ham, undan tashqarida ham huquqiy yordam va huquqiy himoya ko'rsatishga majburdir va bu borada konsullik faoliyati eng maqbul vositadir¹.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. 33 yillik mustaqil rivojlanish yo'liga nazar tashlasak, to'liq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy-huquqiy sohalar bo'yicha ulkan islohotlar hayotning barcha jabhalarida keng ko'lamlı yutuqlar va muvaffaqiyatlarga olib keldi.

Tenglik va o'zaro tushunish tamoyillari asosida ko'plab mamlakatlar bilan munosabatlarni o'rnatish O'zbekistonga jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishga va xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga yordam berdi. Shu munosabat bilan, boshqa mamlakatlar bilan konsullik munosabatlarining rivojlanishini kuchaytirish mamlakatlar O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida diplomatiya va konsullik huquqi sohasida milliy-huquqiy hujjatlar tizimi tarkib topgan. Mamlakatimiz o'z mustaqilligining dastlabki davridayoq O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunini, O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavini qabul qilish va 1963-yilgi Konsullik

¹ G'afurova S.A. Konsullik diplomatiyasining konsullik himoyasi rivojidagi ahamiyati // Falsafa va huquq. T. 2022/2. - B. 70-73. (12.00.00; №13)



munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasiga qo'shilish orqali konsullik faoliyatining qonunchilik negizini yaratdi. Bu O'zbekiston hududida chet el davlatlarining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari, chet el davlatlari hududida esa O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari ochilishiga olib keldi.

2017-2019 yillarda konsullik huquqi tizimi respublikada tubdan qayta ko'rib chiqildi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son Farmoni² talablariga hamohang ravishda qator qonun hujjatlari, xususan, "Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalarini, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini va ularning xodimlarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditatsiya qilish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-may 2019-yildagi 376-son qarori qabul qilindi³, va eng asosiysi, yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavi qabul qilindi. Uzoq yillar davomida og'riqli bo'lib kelgan masalalardan biri, ya'ni O'zbekiston fuqarolari ko'pchilik bo'lib istiqomat qiluvchi ayrim davlatlarning turli shaharlari hududida qo'shimcha konsullik muassasalarini tashkil etish masalasi ijobiy hal etildi⁴.

O'zbekiston Respublikasi konsullik munosabatlarini amalga oshirish amaliyoti mazkur faoliyatning ijobiy natijalari ham respublika uchun, ham uning yuridik va jismoniy shaxslari uchun ulkan ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining bosh vazifasi ayni shu subyektlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 5 apreldagi PF-5400-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 06/18/5400/1023-son.

³ Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalarini, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini va ularning xodimlarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditatsiya qilish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 may 2019 yildagi 376-son qarori

⁴ Масалан, Россия Федерациясининг Санкт-Петербург, Ростов-на-Дону, Новосибирск, Козон, Екатеринбург ва Владивосток шаҳарларида бош консуллик муассасаларида ташкил этилди // О консульских округах дипломатических представительств и консульских учреждений Республики Узбекистан за рубежом // <https://mfa.uz/ru/consular/consular>



Jahonda yangi tartibning o'rnatilishi, xalqaro munosabatlarning chuqurlashuvi, globallashtirish va integrasiya jarayonlarining rivojlanishi konsullik muassasalari faoliyatiga va O'zbekiston Respublikasining konsullik munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni echishga nisbatan yangicha yondashuvni taqozo qiladi. O'zbekistonlik konsullik huquqi tadqiqotchisi dosent G.Yuldasheva ta'kidlab o'tganidek, "O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari faoliyatini keng rivojlantirish ularning ishini yanada faollashtirishni, shuningdek O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar va shartnomaviy bazani O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini samarali amalga oshirish va uning jahon hamjamiyatiga yanada faol qo'shilishini ta'minlash manfaatlarida takomillashtirishni taqozo etadi"⁵.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan faol investisiya siyosatiga bog'liq. O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirish bo'yicha elchixonalarimiz ham faol va tizimli ish olib borishi lozim"⁶, degan tashqi siyosiy organlar, xususan konsullik muassasalari uchun zarur bo'lgan faoliyatning zamonaviy yo'nalishlarini sanab o'tdilar. Fikrimizcha, bunga erishish uchun ular yanada faol ishlashi va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni chet elda ilgari surishga ko'maklashishi, mamlakatimiz kompaniyalari, firmalari va korxonalarini bilan ularning chet ellik hamkorlari o'rtasida bog'lovchi bo'g'ing'a aylanishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillari mobaynida respublikamiz o'zini xalqaro munosabatlarning mustaqil subyekti sifatida namoyon etish bilan bir qatorda, tashqi siyosiy organlarning izchil tizimini yaratishga, barcha yo'nalishlarda konsullik munosabatlarini xalqaro normalar va standartlarga muvofiq, ilg'or xorijiy tajribani va o'zbek xalqining zehniyati, tarixiy an'analari va milliy-davlat manfaatlarini hisobga olgan holda o'rnatish va rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston savdo-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy aloqalarning jadal sur'atlarda kengayishi boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni izchil va har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida respublikamiz konsullik muassasalarining bu yo'nalishdagi faoliyatini takomillashtirishni taqozo qiladi.

⁵ Юлдашева Г. Структура и организация деятельности консульских учреждений Республики Узбекистан // Общественные науки в Узбекистане. – Т., 2003. – № 6. – 22–23-б.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalarini faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/1423> – 2018. – 12 yanv.



Bu borada O'zbekistonning konsullik munosabatlarini mazmun jihatidan qayta baholash respublikamizga xalqaro munosabatlar tizimida o'zining munosib o'rini egallash, fuqarolarimiz huquqlari va erkinliklarining daxsizligini kafolatlash, yuridik shaxslarimizning huquqlari va manfaatlarini har qanday davlatda himoya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'afurova S.A. Konsullik diplomatiyasining konsullik himoyasi rivojidagi ahamiyati // Falsafa va huquq. T. 2022/2. - B. 70-73. (12.00.00; №13)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 5 apreldagi PF-5400-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 06/18/5400/1023-son.
3. Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalarini, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini va ularning xodimlarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilish tartibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 may 2019 yildagi 376-son qarori
4. Масалан, Россия Федерациясининг Санкт-Петербург, Ростов-на-Дону, Новосибирск, Қозон, Екатеринбург ва Владивосток шаҳарларида бош консуллик муассасаларида ташкил этилди // О консульских округах дипломатических представительств и консульских учреждений Республики Узбекистан за рубежом // <https://mfa.uz/ru/consular/consular>
5. Юлдашева Г. Структура и организация деятельности консульских учреждений Республики Узбекистан // Общественные науки в Узбекистане. – Т., 2003. – № 6. – 22–23-б.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/1423> – 2018. – 12 yanv.

